

O'RTA ASRLAR ISLOM DUNYOSIDA FALSAFA ILMINING RIVOJLANISHI

Sobirov Zuhridin Najmiddin o'g'li

Oriental universiteti, "Tarix" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada O'rta asrlar davrida musulmon dunyosiga falsafa ilmining kirib kelishi va bu ilm rivojida muhim rol o'ynagan mutafakkirlar faoliyati tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: falsafiy bilimlar, "Tarjimonlar maktabi", arab xalifaligi davri, sxolastika, falsafiy matnlarning tarjimalari, qadimiy sivilizatsiyalar, Sharq falsafasi.

Abstract: This article examines the introduction of philosophy to the Muslim world in the Middle Ages and the activities of thinkers who played an important role in the development of this science.

Key words: philosophical knowledge, "School of translators", period of Arab caliphate, scholasticism, translations of philosophical texts, ancient civilizations, Eastern philosophy.

Аннотация: В данной статье рассматривается внедрение философии в мусульманский мир в средние века и деятельность мыслителей, сыгравших важную роль в развитии этой науки.

Ключевые слова: философское знание, «Школа переводчиков», период Арабского халифата, схоластика, переводы философских текстов, древние цивилизации, восточная философия.

Sharqiy O'rta yer dengizi mamlakatlari ilk o'rta asrlarda (XII asrning ikkinchi yarmigacha) o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy darajasiga ko'ra zamondosh Yevropa mamlakatlaridan salmoqli yuqori o'rin tutar edilar. Bu yerlarning katta qismi Vizantiya imperiyasi tarkibiga kirar edi, lekin VII asrda juda katta hududda ulkan Arab xalifaligi tashkil topdi. Arab-musulmon madaniyati doirasidagi falsafiy rivojlanish darajasi o'sha davr g'arbiy Yevropa falsafiy rivojlanish darajasidan tubdan farq qildi.

Tafakkur sohasida yangi tushunchalarning tarqalishi va ijtimoiy fanlar sohasida jumladan siyosiy sohadagi muloqotlar tufayli musulmonlar ongi G'arbning tarixiy taqdiri, vaziyatlari bilan bog'liq voqealarga to'qnash kelib qoldiki, musulmonlarning an'ana va mentalitetida buning ildizi yo'q edi¹⁴.

"Ta'kidlash zarurki, keyingi davrgacha ham g'arb olami islom bilan muloqotga kirgan edi. Masalan, salb yurishlari davrida. U vaqtda ulug' islom sivilizasiyasi so'na boshlagan edi. G'arb olami ham surunkali bo'hronlarni boshidan kechirmoqda edi, va shubha yo'qki, xuddi shu to'qnashuv G'arb olamining uyg'onishida muhim rol o'ynadi, natijada Uyg'onish davri (Renessans)boshlanib, Reformatsiya harakati avj oldi, buning hosilasi

¹⁴ Faxriy M. Al-falsafat al-islamiya. – Bayrut.:Jami'at al-islamiya, 1974. –B .57.

hozirgi sivilizatsiyadir. G'arb bu aloqalar paytida boshqa, o'zi uchun butunlay yangi ko'rinishdagi sivilizatsiya va adabiyot bilan tanishgan edi.

Uyg'onish – bu uzoq davom etgan o'rta asrchilikdan xalos bo'lishdan boshqa narsa emas. Bu qadimiy madaniy an'analar, yunon-rim shahar – davlatlari va respublikalar bilan g'oyaviy aloqani tiklashdir. Va, albatta, Uyg'onish bu – an'anani qayta tafakkurdan o'tkazish, tahlil qilish va o'zgartirib qabul qilish ham.”¹⁵

Yaqin Sharq, O'rta Osiyo, Eron, musulmon Ispaniyasi va qisman Shimoliy Afrika mamlakatlari asosini falsafiy bilimlar tashkil qiluvchi madaniyatni rivojlantirdilar. Musulmon dunyosida falsafiy bilimlarning rivojida antik falsafaning kirib kelishi va tarqalishi muhim o'rin tutdi. Rim va Vizantiya imperiyalarining inqirozi mintaqada madaniyat va ilm-fanning ham inqirozini keltirib chiqardi. 489 yili imperator Zenon Edesse Akademiyasini yopgan bo'lsa, 529 yili imperator Yustinian Afina va Iskandariya Akademiyasini tarqatib yubordi. Ko'plab quvg'in bo'lgan olimlar fors shohi Hisrav I saroyidan, so'ng Damashq va Bag'doddan qo'nim topdilar. Suriyalik xristianlar yunon klassikasini avval suryoniy (aramiy) tili, so'ng arab tiliga o'girib, yunonlarning antik merosi va arablar o'rtasidagi o'ziga xos ko'prik vazifasini o'tadilar. Bag'dodda xalifa Xorun ar-Rashid davrida maxsus “Tarjimonlar maktabi” yaratilib, uning oldida antik ilm-fan klassiklari – Gippokrat, Galen, Yevklid, Arximed va Ptolomey asarlarini arab tiliga o'g'irish vazifasi qo'yilgan edi. Ayniqsa antik faylasuflar Platon (Aflotun), Aristotel'(Arastu) va yangi aflotunchilar asarlarini tarjima qilishga alohida e'tibor berilar edi. Bu asarlarni faqat tarjima bilan cheklanmay, ayniqsa Arastu ishlariga ko'p sonli sharhlar ham berilgan.

“Hatto bunday sharhlar tuzishning o'ziga xos uslubi ham yuzaga keldi:

- 1) matnni muallif matnidan ajratmagan holda materialni erkin bayon etadigan qisqa parafrazalar;
- 2) o'rtacha sharh, unda sharhlovchi paragrafma-paragraf muallifni kuzatib borib, matnning birinchi so'zlarini iqtibos sifatida takrorlaydi;
- 3) katta sharh, original tuzilmasini to'laligicha saqlab qolib, sharhlarni matn sharhidan alohida, ajratib iqtibos keltiradi va tushuntiradi.”¹⁶

Ma'rifatli doiralar diqqat markazida Arastu falsafasi turar edi. Biroq, uni musulmon dunyosida o'zlashtirish shunday xususiyatga ega ediki, uning asarlari bilan tanishish keyingi davr arastuchilari va yangi aflotuncha sharhlar vositasida, masalan, Aleksandr Afrodisiy, Femistiy, Porfiriya va boshqalar ijodining samarasi orqali amalga oshirilgan edi. Bir qancha uydirma asarlar ham keng tarqalgan bo'lib, ulardan eng muhimi “Arastu ilohiyoti” deb atalgan asar edi. Ushbu asar aslida Plotinning “Enneadlar” asarining bir necha boblaridan iborat edi.

Ana shunday “yangi aflotunchilikka aylantirilgan” arastuchilik musulmon sharqi arastuchilari tomonidan ishlab chiqilgan ta'limotga asos bo'ldi. Bu ta'limot arab va fors

¹⁵ Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. Tarj.: N.Qodirzoda. - T.: “Minhoj” nashr., 2003. –B. 5.

¹⁶ Ahmedova M.A. Arab aristotelizmi va lotin averroizmi: sharq va g'arb falsafa an'alarining o'zaro ta'siri. “Sharq falsafasi qadriyatlar va ularning O'zbekiston ma'naviy hayotidagi o'rni” Ilmiy maqolalar to'plami. -T.:2009. – B.17.

tilarida ko'p sonli manbalarda mavjud. Agar IX-XI asrlar davomida bu ta'limot sharq mutafakkirlari tomonidan xolis o'rganilgan bo'lsa, XII asrdan XIX asrgacha faqat bir tomonlama, ya'ni diniy jihatlarigina o'rganilib, dunyoviy fanlarga bag'ishlangan qismlari e'tibordan chetda qoldi.

O'rta asr Sharqida arab xalifaligi davriga kelib yangi ishlab chiqarish usulining qaror topishi bilan intellektual bilimlar monopoliyasi ruhoniylar qo'liga o'tadi. Natijada diniy rasm-rusumlari va an'ana-odatlar jamiyatdagi axloqiy-iqtisodiy va huquqiy-iqtisodiy normalarga aylanadi. Bu davrda falsafa amaliyotdan ajralib, ko'proq sxolastikaga aylanib, ilohiyot haqidagi ta'limot xarakterini oladi. Tabiat va insonni ilmiy o'rganish gunoh hisoblanib, bunday o'rganishga kirishgan mutafakkirlar dahriylikda ayblanadi va quvg'in qilinadi. Lekin shunga karamay, bu davrda ham jamiyatning madaniy-ma'naviy taraqqiyoti ma'lum darajada to'xtamay davom etadi.

Bu davr mutafakkirlari islom dinining cheksiz hukmronlik qilgan sharoitlarida ham olamning tabiati va mohiyati, uning taraqqiyoti, koinotning sirlari, insonning hayoti va uning dunyodagi o'rni haqida, insonda uchraydigan har xil kasalliklarning sabablari haqida diniy qarashlar bilan birga, ulardan tubdan farq qiladigan tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarni ham ilgari suradilar. Bu bilan ular ilg'or falsafiy dunyoqarashga va tabiatshunoslik bilimlari rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shadilar. Bu mutafakkirlar o'z qarashlari bilan O'rta asr Sharq falsafasiga asos soladilar.

Qadimiy sivilizatsiyalar Sharqda paydo bo'lgan. Tarixda Yevropaning Markaziy Osiyo, Eron va Hind mintaqalari madaniyati bilan to'qnash kelgan hollarda ko'proq Sharq g'arb madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Aleksandr Makedonskiyning bu mintaqalarga qilgan yurishini eslash kifoya. Yunon manbalarida, garchi nomma-nom ko'rsatilmasa-da, Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining talimotlari grek-orfey va pifagor maktablari shakllanishiga muayyan ta'sir qilgani e'tirof etilgan. Yunon faylasuflari istilohlari va tafakkur uslubi bilan yozilgan Kindiy, Farobiy, Ibn Sino va Ibn Rushdlarning mukammal falsafiy asarlari mashshoiy yoki boshqacha aytganda, peripatetik falsafa sifatida g'arbda e'tirof etildi. Islom esa, aksincha, ularni yunon falsafasi targ'iboti deb bildi. Holbuki, Farobiy o'z asarlarida tushuntirishga uringanidek, yunon falsafasi aslida sharqda mavjud ilmlardan oziqlangan edi. Markaziy Osiyo, Eron, Hind, Misr, Bobil davlatlarida mavjud bo'lgan diniy-ilohiy qarashlar o'z davrida yunon falsafasining shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatganligi bugun fanda isbotlangan. Grek falsafasi paydo bo'lgan davrda din, falsafa va ilm bir-biridan ajrab ulgurgan edi. Sharqda bujarayon kechmagan, shu bilan birga, Sharq mantiqiy tafakkur tarzini hech qachon inkor qilmagan. Ulardan yunon faylasuflari tadqiqotlari talqinlariga o'xshash narsalarni, masalan, Aristotelning "Metafizika" yoki Platonning "Dialog" kabi ishlaridan qidirsak xato bo'ladi. Shunday ekan, Sharq falsafasiga tarqoq, mavhum mistik-ilohiy obrazlar dunyosi va diniy-e'tiqodiy qarashlar majmuasi sifatida qaramay, balki yaxlit tizimga ega, o'z taraqqiyoti bosqichlarida birin-ketin barcha sharq xalqlari tafakkuriga singib borgan, ammo turlicha ko'rinishlarda namoyon bolgan ilm sifatida qarash to'g'riroq bo'ladi. Yevrosentrik qarashlardan qutulib, Sharq falsafasining universal g'oyalari tahlili bilan shug'ullanish, sharq xalqlari diniy-falsafiy ta'limotlarini o'zaro

qiyosda, ta'sir doirasi ko'lamini kuzatish orqali yaxlit tizimda o'rganish dolzarb masaladir. Islomiy falsafani o'rganish ham ana shu salmoqli vazifaning bir yo'nalishidir.

17

Tarixdan malumki, islom dinining yuqori tamaddun darajasiga ega bolgan mintaqalarga yoyilishi bu yerlarda ustuvor bolgan mistik-falsafiy qarashlarning islom mafkurasi bilan to'qnashuvini keltirib chiqargan. Bunday tashqi ta'sir dastlab, umaviylar hukmron bo'gan Suriya hududida yashovchi mistik xristianlar tomonidan ko'rsatildi. Abbosiylar davrida poytaxtning Damashqdan Bag'dodga ko'chirilishi va Ma'mun akademiyasining shakllanishi tashqi ta'sirni yanada oshirdi. Buning ustiga, bu yerda Hind, Eron va Markaziy Osiyo xalqlarining ko'pmingyillik diniy-mistik qarashlariga duch kelindi. Arab bo'lmagan (ajam) xalqlarning islomni qabul qilishi va natijada bu mintaqalarda mavjud mistik tasavvurlarning islomlashuvi ham islom dunyosida yangicha tafakkur, yangicha qarashlarni paydo qildi.

Falsafiy matnlarning tarjimalari. Amaliy mulohazalar eng qadimgi ilmiy va ayniqsa, tabobat sohasidagi matnlarni arab tiliga tarjima qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Ibn Nadimning (vaf. 925 y.) "Al-fehrist" ("Ro'yxat") kitobidagi ma'lumotlarga ko'ra, birinchi marta kimyo, astronomiya va tabobatga doir asarlarni arab tiliga tarjima qilish tashabbusi Umaviy amiri Xolid ibn Yazidga (vaf. 704 y.) taalluqli ekan. Ilgari zardushtiylar dinida bo'lib, keyin islomga kirgan Abdullo ibn Muqaffaning (757 y. qatl et.) paxlaviy tilidan arab tiliga hind olimi Bidpoy Hakimning "Kalila va Dimna" asarini tarjima qilganligi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning qadimgi fors tilidan arab tiliga qilgan tarjimalaridan "Xudoynoma" ("Qadimgi fors davlatchiligi tarixi"), "Oyinnoma" ("Yo'l-yo'riqlar, urf-odatlar"), "Mazda kitobi", "Anushervonning hayot yo'li" va boshqa adabiy-axloqiy risolalar islom mintaqasi madaniyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.¹⁷

Arastuning "Kategoriylar" ("Ma'qulot"), "Birinchi analitika" ("Tahlili avval"), Porfiriyning "Isog'uchi" ("Mantiqqa kirish") asarlarini Abbosiy xalifa Mansur (754-770) uchun arab tiliga tarjimasini ham Ibn Muqaffa bajargan (Qiftiy. "Tarixi hukamo". 220 sahifa). Xalifa Mansur tarjima ishlariga jalb qilgan olimlar orasida Navbaxtiy xonadonining a'zolari hamda eng mashhur olim Albitriq ham bor edi. Ba'zi manbalarda keltirilishicha, mazkur xalifa hukmronligi davrida Arastuning bir necha risolalari, Iskandariyada ijod qilgan Ptolemeyning "Almagest", Yevklidning "Geometriya usuli" va boshqa bir necha asarlar yunon tilidan arab tiliga tarjima qilingan (Mas'udiy. "Muruj az-zaxab", Parij, 1861-77, 8-jild, 291-292 betlar). Ammo malakali tarjimonlarning yetishmasligi sababli IX asr boshigacha tarjimachilik ishlari unchalik rivoj topmagan. Haqiqiy tarjimachilik ishini Mansurning nevarasi Ma'mun (813-833) yo'lga qo'ygan. Xorun ar-Rashid saroyining tabibi Yuhanno ibn Mosul o'z asrining eng buyuk olimlaridan biri bo'lgan. Ma'mun uni 830 yili "Baytul hikma" ("Donishmandlik uyi") raisligiga tayinlagan. U Aflotunning "Timey" asarini arab tiliga tarjima qilgan.

¹⁷ Sh. Sirojiddinov Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi: - Toshkent: 2008. - 132 b.

¹⁸ Sayyid Muhammad Xotamiy. Islom tafakkuri tarixidan. Forschadan N.Komil tarj. Toshkent, 2003, 21-22-betlar.

Hajjoj ibn Matar, Yahyo ibn Albitriq, Hunayn ibn Ishoq (809-873)larning tarjimachilik faoliyati jo'shqin bo'lgan. Salamo ismli olim va tarjimon "Sohibi Baytul hikma" ("Donishmandlik uyining egasi") laqabiga sazovor bo'lgan (Ibn Nadim. Kitobe alfehrist. 353-bet). Hunayn ibn Ishoq o'z shogirdi Iso ibn Yahyo bilan birgalikda o'z homiylari bo'lgan Muhammad ibn Muso uchun ko'plab tarjimalar qilganlar. Hunayn muharrirligi ostida uning do'stlari, o'g'li Ishoq, jiyani Xubash va shogirdi Iso ibn Yahyo tomonidan Arastuning deyarli barcha asarlari, Aflotunning bir qism kitoblari tarjima etilgan. Hozirgacha arab tilida mavjud bo'lgan Iskandariyada yashagan Jolinus (Galen) va Buqrot (Gippokrat) kitoblari Hunayn tarjimasida yetib kelgan.

Yirik tarjimonlar bo'lgan Abu Bishr Matto (vaf. 940), Yahyo ibn Adiy (vaf. 974), Qisto ibn Luqo (vaf. 900), Abu Ali ibn Zara (vaf. 1008), Hasan ibn Savor (vaf. 1017) yoki Ibn Xammor, Sobit ibn Qurra Harroniylarning faoliyati sermahsul bo'ldi.¹⁹

Arablarning Eron va Hind madaniyati bilan tanishuvi VIII asrdayoq boshlanib, tabobat va siyosiy tuzum sohalaridagi fanlarda o'z aksini topgan edi. Arab tiliga tarjima qilingan birinchi kitoblar orasida hind olimi Brahamaguptaning astronomiyaga oid "Sinhento" (Sinhed) asari mavjud bo'lib, u islomda astronomiya ilmining rivojiga muhim hissa qo'shdi. Abbosiy xalifalar bo'lgan Mansur va Horun hukmronligi davrida ularning ajamlik vaziri Yahyo Barmakiy tashabbusi bilan bir qancha boshqa kitoblar ham hind tilidan arabchaga o'girildi. Shunday bo'lsa ham, musulmonlarning hind falsafasiga qiziqishi ilmi nujum va tabobatga nisbatan kam edi (Ibn Nadim, "Kitobe Alfehrist". 438, 498-betlar). Ibn Nadimning xabar berishicha, muallifi nomalum bo'lgan hindlarning "Milal hind va adyonahum" ("Hind millatlari va ularning dinlari") nomli kitobining arabcha nushasini Abu Ishoq al-Kindiy (vaf. 866) o'z qo'li bilan yozganligini qayd etgan. Abu Rayhon Beruniy (vaf. 1048) 1030 yilda yozgan o'zining "Tahqiq Molalhind" ("Hind mulkining tadqiqi" yoki "Hindiston") asarida IX asr ikkinchi yarmida yashagan olim Yeronshahriy to'g'risida gapirib, uning hindlarning diniy aqidalarini xolis tadqiq qilganligini eslatib o'tadi. Yeronshahriy nomini Nosir Xisrav (vaf. 1061) ham eslatib o'tgan. Uning qayd etishicha, Muhammad Zakariyo Roziy (IX asr) Hind aqidalarini Eronshahriydan iqtibos qilgan. Roziy inson va jahon to'g'risidagi o'z falsafiy ta'limotida dunyo besh azaliy ibtidodan tashkil topganligi va jismlarning atomlardan (bo'linmas zarrachalar) iborat ekanligi, ruhlarning ko'chib yurishi, ya'ni tanosuh aqidasi haqida mulohaza yuritadiki, uni hind falsafasining ta'sirida shakllangan, deb hisoblash mumkin. Jismlarning atomdan tashkil topganligi haqidagi aqida Roziydan tashqari, musulmon mutakallimlari o'rtasida ham yoyilgan edi. Bu Arastu falsafasiga qarama-qarshi qo'yilgan sanaviyat (dualizm) aqidasi bo'lib, unga binoan javhar (substansiya) va oraz (aksidensiya) ikki mustaqil ibtido sifatida talqin qilinadi. Sanaviyat tez orada imon shartlaridan biri sifatida maydonga chiqdi. Musulmon mutakallimlari faqat bir istisno bilangina modda, makon va zamon haqidagi atom nazariyasini qabul qildilar va uning

¹⁹ Sayyid Husayn Nasr, Suhrovardi and the School of Ishraq, p. 146.

asosida mustahkam kalom qoidasini ishlab chiqdilarki, unda mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan yagona zot xudo edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduhalimov B.A. "Bayt al-hikma" va O'rta Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati: (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). –T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004.
2. Fakhry Majid. A history of Islamic philosophy. Columbia University Press, 1970.
3. Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. Tarjimon N. Qodirzoda. –T.: Minhoj. 2003
4. Lega V. P. Istoriya zapadnoy filosofii. (G'arb falsafasi tarixi). –T. 1998.

